

## **YAPONIYA FUQAROLIK PROTSCESSIDA SUD VA TARAFLARNING ROLI: TARAFLAR TORTISHUVI PRINSIPI NUQTAYI NAZARIDAN QIYOSIY TAHLIL**

**Umida Khusainova Abdikhalik qizi**

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: [umida1101@gmail.com](mailto:umida1101@gmail.com)

Fuqarolik protsessual harakatlarni uning sub'yektlari o'rtasida, ya'ni sud va taraflar o'rtasida to'g'ri va aniq taqsimlash fuqarolik protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan vazifalar, xususan, fuqarolik ishlarini to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqish hamda hal etishni amalda ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, fuqarolik protsessual huquqi sohasida sud va taraflarning roli, ular tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar bo'yicha ikkita yirik tizimning klassik bo'linishi mavjud:

- 1) taraflar tortishuvi (erkinligiga)ga asoslangan tizim<sup>1</sup>;
- 2) inkvizitsiyaviy (sud tergoviga asoslangan) tizim<sup>2</sup>.

Har ikkala tizimda ham fuqarolik protsessi manfaatlari o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ikki taraf o'rtasidagi nizoli masalani hal etish vazifasini bajarishga qaratiladi. Lekin ushbu jarayonni aynan qanday tartibda amalga oshirishiga qarab bir qator jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Yaponiya fuqarolik protsessual qonunchiligi inkvizitsiyaviy (sud tergoviga asoslangan) tizimdan taraflar tortishuvi (erkinligiga)ga asoslangan tizimga bosqichma-bosqich o'tib keldi. Aytish mumkinki, Yaponiya yuqoridagi klassik ikki tizimning ijobiy jihatlari va elementlarini o'zida mujassamlashtirishni maqsad qilgan fuqarolik protsessual qonunchiligiga ega. Shu sababli ushbu tajribadan o'rganiladigan jihatlari ham bir talay. Quyida ushbu davlat fuqarolik protsessual qonunchiligida fuqarolik protsessi sub'yektlari o'rtasida vazifalar qanday taqsimlanganligini milliy qonunchilik bilan tahlil qilish orqali ko'rib chiqamiz.

Yaponiya fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida sud va taraflar o'rtasida vazifalar taqsimoti masalasi muhim hisoblanib, bu masala bo'yicha protsessualist olimlar tomonidan turli nazariyalar shakllantirilgan. Bugungi kunda sud va taraflar protsessning qaysi bosqichida qanday vazifalarni amalga oshirishi haqida aniq qoidalar va nazariyalar mavjud bo'lib, hozirda amaliyotda bu masala bo'yicha deyarli muammolar uchramaydi.

Yaponiya fuqarolik protsessual huquqi bo'yicha sudda ishni ko'rishda bajariladigan vazifalar quyidagi asosiy uch guruhga ajratib ko'rsatiladi:

- 1) Sudga da'vo arizasi kiritish- kiritmaslik, ya'ni nizoni sud orqali hal qilish yoki boshqa usulni tanlash, sudga da'vo kiritiladigan bo'lsa da'vo talabi doirasini belgilash;
- 2) Protsessual materiallar (fakt, dalillar) ni to'plash masalasi;
- 3) Sudda ish ko'rishni tashkil etish (tashkiliy masalalar).

<sup>1</sup> Adversary system (Verhandlungsmaxime)

<sup>2</sup> Inquisitorial system (Inquisitionsgrundsatz order-maxime)

Birinchi holat bo'yicha sudga da'vo arizasini kiritish-kiritmaslik va da'vo mazmuni hamda miqdorini belgilash to'liq taraflar ixtiyoriga beriladi. Chunki Yaponiya fuqarolik protsessual qonunchiligi "Shobunken-shugi - Erkin huquq" prinsipiga asoslanadi. Ushbu prinsipning mazmuniga ko'ra taraflar quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- sud ish yuritishini qo'zg'atish bilan bog'liq bo'lgan huquqlar (da'vo qo'zg'atish, sud qarorlari ustidan shikoyat (protest) berish, qarshi da'vo keltirish);
- sud ish yuritishini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan huquqlar (da'vo miqdorini oshirish, da'vo miqdorini kamaytirish, da'vo asosini o'zgartirish, da'vo predmetini o'zgartirish);
- sud ish yuritishini tugatish bilan bog'liq bo'lgan huquqlar (da'vodan voz kechish, da'voni tan olish, kelishuv bitimi tuzish).

Ikkinchi holat bo'yicha, ya'ni qanday materiallarga asoslanib sud qarori chiqarish masalasini "Benron-shugi – Taraflar tortishuvi" prinsipi belgilab beradi. Ushbu prinsip nemis huquqidagi "Verhand-lungsmaxime" prinsipidan kirib kelgan.

Benronshugi – sud qaroriga asos bo'ladigan protsessual materiallar (faktlar, dalillar)ni taqdim etishni taraflarning huquqi va majburiyati sifatida belgilovchi taraflar tortishuvi prinsipi bo'lib, Yaponiya fuqarolik protsessual huquqining eng asosiy qoidalaridan biri hisoblanadi. Ushbu prinsip Fuqarolik protsessual kodeksida to'g'ridan-to'g'ri belgilanmagan. Lekin uning mazmuni haqida bugungi kunga qadar juda ko'plab ilmiy izlanishlar o'tkazib kelinib, turli nazariyalar mavjud. Ulardan umumiy ta'n olingan nazariyaga ko'ra, fuqarolik protsessual huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar erkin huquqqa asoslangan munosabatlar bo'lib, protsessual huquq ham shunday erkin irodaga asoslanishi kerak. Ish holatlarini aniqlashda ham taraflarning xohish-irodasi va erkinligi ustuvor ahamiyat kasb etishi kerak.

Taraflar tortishuvi prinsipi mazmuni quyidagi 3 tezisni o'z ichiga oladi:

- 1) Sud taraflar da'vo qilmagan faktlardan sud qarorining asosi sifatida foydalanishi mumkin emas;
- 2) Sud taraflar o'rtasida nizo mavjud bo'lmagan faktlarni o'sha holatida qabul qilishi kerak;
- 3) Nizo mavjud bo'lgan faktlar bo'yicha isbotlashni qoida tariqasida, faqatgina taraflar taqdim etgan dalillarga asoslanib amalga oshirish kerak.

Lekin sudning hal qiluv qarori boshqa shaxslarning manfaatlariga (uchinchi shaxslarga) daxldor bo'ladigan holatlarda ushbu qoidalarga istisno qoidalar ham belgilangan. Bunday qoidalar asosan oilaviy nizolar, mehnat nizolari, sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash masalalari kabi isbotlash uchun dalillar to'plash taraflarga qiyinchilik tug'diradigan holatlar bo'lib, bunday istisno holatlar qonun hujjatlari bilan tartibga solib ko'rsatilgan.

Uchinchi holat, sudda ish ko'rishni tashkil etish (tashkiliy masalalar) bo'yicha vazifalar to'liq sudga yuklatilgan. Buni sud tomonidan protsessni boshqaruv huquqi deb ham atasa bo'ladi. Sud muzokaralar, guvohlarni so'roq qilish kuni va vaqtini belgilaydi (FPK 93-modda), ish yuzasidan qaysi dalillar baholanishi kerakligi masalasini hal qiladi (FPK 181-modda).

Shunday qilib, Yaponiya fuqarolik protsessida sud va taraflarning roli quyidagicha taqsimlangan: sud protsessning borishini, ya'ni sudda ish yuritishning tashkiliy masalalarini

(qachon va qanday tartibda ko'rish) ni hal qiladi va ish yuzasidan qaror qabul qiladi; taraflar esa ishning mazmunini tashkil etuvchi faktlar va dalillarni to'plash va taqdim etishni amalga oshiradi.

Sud va taraflar o'rtasidagi rolning bunday taqsimlanishiga qaramasdan, fuqarolik protsessual kodeksi samarali odil sudlovga erishish uchun sud va taraflar o'rtasida o'zaro hamkorlikni nazarda tutadi. Masalan, agar taraflarning ko'rsatmalari tushunarsiz bo'lsa, sud ularga huquqiy va faktik aniqlik kiritish maqsadida taraflarning tushuntirishlarini so'rashga haqli. Shuningdek, sud taraflardan dalillar taqdim etishni so'rashi mumkin (FPK 149-modda). Sud huquqiy va faktik masalalarni oydinlashtirish uchun taraflardan hujjatlar taqdim etishlarini yoki ekspert guvohlarni so'roq qilish kabi choralar ko'rishga haqli (FPK 151-modda). Taraflar esa sudning ko'rsatmalariga e'tiroz bildirishga yoki suddan buyruqlar, ko'rsatmalar berishni so'rashga haqli (FPK 150-modda). 1996-yilgi FPK islohotlaridan so'ng, sud ishni sudda ko'rishga tayyorgarlik bosqichi va guvohlar yoki taraflarni so'roq qilish bo'yicha taraflardan ularning fikrini so'rashi mumkin (FPK 168, 175, 202 va 207-moddalar). Shu tarzda sud va taraflarning o'zaro hamkorlikda faktlarni aniqlashi va protsessni olib borishi nazarda tutilgan. Taraflar tortishuvi fuqarolik sudlarida ish yuritishning muhim prinsiplaridan biri bo'lib, bugungi kunda ushbu prinsipning amalda ijrosini kuchaytirish mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ham asosiy maqsadlaridan biridir. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan ikkinchi yo'nalishida ham sud protsessida tomonlarning tortishuvi va teng huquqlilik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish nazarda tutildi<sup>3</sup>. Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining ikkinchi yo'nalishi sifatida ham adolat va qonun ustuvorligiga erishish uchun sud protsessida tomonlarning haqiqiy tengligi va tortishuvi tamoyillarini ro'yobga chiqarish zarurligi alohida ta'kidlandi<sup>4</sup>.

Milliy qonunchiligimizga qaraydigan bo'lsak, amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksi 10-moddasi taraflar tortishuvi va teng huquqliligi prinsipini mustahkamlaydi. Unga ko'ra, fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi. Uning mazmuni esa olimlar tomonidan quyidagicha ta'riflangan. Birinchidan, ishda ishtirok etuvchi har qanday shaxs fuqarolik ishi to'g'risida arz qilishi, bayonotlar berishi, e'tiroz bildirishi, iltimoslar qilishi, sudga dalillar topshirish bilan o'zining haqligini isbotlashi, ish mazmuni bo'yicha o'z fikrlarini aytishi mumkin; ikkinchidan, prokuror ish holatlarini isbotlashi, ishning ayrim masalalari yuzasidan, shuningdek hamma ish bo'yicha sudga o'z

<sup>3</sup> 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi <https://lex.uz/acts/-3107036>

<sup>4</sup> 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi <https://lex.uz/docs/5841063>

fikrini berishi mumkin; uchinchidan, sud xolisona usul bilan haqiqatni belgilash maqsadida o'z tashabbusi bilan dalillar to'plash huquqiga egadir (Sh.Sh.Shorahmetov)<sup>5</sup>.

Tortishuvchilik tamoyili bu ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni isbotlash yo'li bilan o'z talab va e'tirozlarini sud oldida bildirish, barcha protsessual harakatlarda ishtirok etish va hal qilinishi lozim bo'lgan barcha masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilish, shuningdek sudga ish holatlarini aniqlash hamda tegishli dalillarni to'plashga faol yordam ko'rsatishdagi huquq va majburiyatlari yig'indisidir (D.Yu.Xabibullaev)<sup>6</sup>.

Tortishuvchilik prinsipi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ish yuzasidan o'z talab va e'tirozlarini isbotlashdagi faolligini, ular tomonidan ish materiallarini tuzish tartibini belgilaydi, protsessda sudning rolini oshiradi va shu orqali sud tomonidan qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilinishini ta'minlaydi. Tortishuvchilik prinsipining mohiyati shundan iboratki, fuqarolik sud ishlarini yuritishda taraflar o'z manfaatlarini yuzasidan bir-birlariga qarama-qarshi bo'ladilar hamda ishlarni sudda muhokama qilish ular o'rtasidagi nizoli masalani hal qilish asosida olib boriladi (M.M.Mamasiddiqov)<sup>7</sup>.

Tortishuvchilik prinsipi asosan dalil taqdim etish va e'tiroz (tushuntirish, fikr) berishdan iborat bo'lib, taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning sudda faol ishtirok etishini kafolatlaydi (R.A.Xusainova)<sup>8</sup>.

Aslida, taraflar tortishuvi prinsipi fuqarolik protsessida sud va taraflarning xatti-harakatlari chegarasini belgilab beradi. Hozirgi kunda butun dunyoda tan olingan klassik ta'rifga ko'ra, taraflar tortishuviga asoslangan sud jarayonlari ikkala tomonning qarama-qarshiligi, tengligi va ularning faolligi asosida amalga oshirilib, bunda sud faol bo'lmagan pozitsiyani egallaydi. Ushbu prinsipning mohiyati ham aynan taraflarning sud oldida qarama-qarshi turib tortishishi, nizolashilayotgan masala bo'yicha o'zlari taqdim etadigan turli dalillar yordamida sudni ishtirok etishga harakat qilishlarida bo'lib, bunda isbotlash majburiyati taraflarninggina zimmasiga yuklanadi. Sud esa umumiy qoida tariqasida dalillar to'plashdan chetlatilib, xolis baho beruvchi vazifasini bajarishi kerak.

Ayrim toifadagi ishlar uchun ularning o'ziga xos jihatlari va dalillar to'plashda (isbotlashda)gi qiyinchiliklarni hisobga olgan holda alohida tartib sifatida sudning faol ishtirokini saqlab qolish lozim. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub'yektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ma'muriy sud ishlarini yuritishni "sudning

<sup>5</sup> Sh.Sh. Shorahmetov. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. – T.: Adolat, 2010. 40-41-b.

<sup>6</sup> D.Yu.Xabibullaev. Fuqarolik protsessual huquqining tamoyillari va ularni sud amaliyotida tatbiq etish muammolari. Yuridik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. – Toshkent, TDYI. 2007, - 18 b.

<sup>7</sup> M.M.Mamasiddiqov. Fuqarolik protsessual huquqi, darslik. M. Mamasiddiqov, X. Yodgorov, O'. Davletov. - Toshkent: Complex Print, 2020. – 68b.

<sup>8</sup> R.A.Xusainova. Fuqarolik ishlarini apellyatsiya tartibida sudda ko'rish muammolari. Yur.fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent-2011, 32-b

faol ishtiroki” tamoyili asosida amalga oshirish, bunda ma’muriy sudlarga ishning haqiqiy holatlarini aniqlash uchun o’z tashabbusi bilan dalillarni yig’ish majburiyatini yuklash, huquqi buzilgan fuqaro yoki tadbirkorlik sub’yektiga esa dalillarni yig’ishda faqat o’z imkoniyati doirasida ishtirok etishga sharoit yaratish zarurligi belgilandi. Ma’lumki, bu toifadagi ishlarda taraflar tenglini ta’minlash nisbatan qiyin hisoblanadi, chunki barcha dalillar davlat organlarida bo’lishi mumkin.

Shunday qilib, amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksi 10-moddasida nazarda tutilgan taraflar tortishuvi prinsipini amalda to’liq ta’minlash uchun avvalo uning mazmunini aniq qilib belgilash zarur. Bunda rivojlangan davlatlar horijiy tajribasi muhim o’rin tutadi.

